

## XXI ASR AMERIKA BOLALAR ADABIYOTIDA JANRLAR TIZIMI

D. Amonova

BuxDU 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: M.R. Kilicheva

BuxDU Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amerika bolalar adabiyotidagi XXI asrda sevilib o'qiladigan janrlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada bolalar adabiyotining asosiy mavzulari, ularning boshqa davrlardagidan farqlari hamda bolalar adabiyotida kitoblar nashr qilishdagi yangi yondashuvlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, bolalar adabiyoti, janr, subjanr, rasmlı kitoblar, yozma adabiyot, yosh omili

“Bolalar adabiyoti” birikmasidagi “adabiyot” atamasi ko'pchilik odamlar uchun ko'p ma'noni anglatadi. Buyuk rus yozuvchisi Aleksandr Soljenitsin “Adabiyot – xalqning tirik xotirasi” deb ta'riflagan. Charlz Dikkens “Adabiyot umid baxsh etgan, qayg'u va xo'rlik bilan to'lgan bolaligida umidsizlikdan qutulishga yordam bergan najot” deb tasvirlaydi. Adabiyot umumiy ma'noda quvonch va tasalli topish imkoni, bilimga yetaklovchi yo'l, aql va tasavvurni oshirish vositasi, buyuk san'at turlaridan biri sifatida qaraladi. Bolalar adabiyoti esa bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui tom ma'noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi taomilga kirgan. Bolalar o'qishi uchun mo'ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. Bolalar adabiyoti avvalo, turli yoshdagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan so'z san'atidir. U voqelikni aynan o'n olti-o'n yetti yoshgacha bo'lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalanitiruvchi badiiy asar namunalarini o'zida mujassamlashtiradi. Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'y-kechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Binobarin, xuddi shu xususiyatlarni o'zida namoyon qila oladigan Amerika bolalar adabiyoti XXI asr ikki o'n yillik ichida tarix zarvaraqlarida qayd etilgan bolalar adabiyoti yo'nalish, janr, uslublaridan sezilarli farq qiladi. Bolalar kitoblarini janr va kategoriyalar yoki yosh omili yordamida sinflarga ajratishimiz mumkin. Quyida janrlar va subjanrlar orqali tasnifi berilgan:

Birinchi janr sifatida rasmlı kitoblar (picture books)ni olishimiz mumkin. Bu kitoblar o'z ichiga alifbo, hisoblash kitoblari, ranglarni o'rgatuvchi kitoblarni oladi. Rasmlı kitoblar yana o'z navbatida turlarga bo'linadi, bularga pattern books va wordless books misol bo'la oladi va ular yoshga asoslanadi. Misol sifatida Alexander and The terrible, Horrible, Very Bad Day (Judith Viorist) kitobini olishimiz mumkin. Bolalar adabiyotining eng dastlabki va eskirmaydigan qismi bo'lgan og'zaki adabiyot 21-asrda ham o'z qadr qimmatini yo'qotmagan. Har qanday kichik odam hayotining dastlabki oylaridan onasining nozik ovozlari alla nolalarini tinglaydi va bu orqali mehr-muhabbat, iliqlik, ona taftini his qiladi. Britaniya adabiyotida “nursery ryhmes”, Amerika adabiyotida “Mother Goose ryhmes” deb ataladi. Ammo “Mother Goose ryhmes” tarixiy kelib chiqish jihatidan ertaklarga ishora qilgan. Amerikaliklar bularni chaqaloq qo'shiqlari (baby songs, cradle) deb ham atashadi.

Quyida "Little boy: A collection of Nursery Rymes" dan olingan parcha keltirilgan:

Hey, diddle diddle,

The cat and the fiddle,

The cow jumped over the moon;

The little dog laughed

To see such sport,

And the dish ran away with the spoon.

Yuqoridagi misolda aks ettirilgani kabi bunday adabiy parchalar ritmik va takroriy ohangga ega bo'lib, bolalarga xush yoqadigan xusuiyatga ega.

Folklor adabiyotning dastlabki qadamlari uzoq tarixga borib taqaladi va hozirgi kunga qadar amalda. Keyingi adabiy tur sifatida topishmoqlarni olishimiz mumkin. Ular xalq og'zaki ijodining aqlli turlaridan biri bo'lib, bolalar tengdoshlari, orasida ularning maktabgacha ta'lim muassasalarida, sinfda, o'yin maydonchalarida keng tarqalgan. Bular birinchi navbatda diqqatni kuchaytiradi, xotirani sharxlaydi, tasavvurni oshiradi, o'ziga xos fikrlash qobiliyatini, masalaning yechimiga yondashuv yo'llarini qidirish imkonlarini yaxshilaydi. Shuningdek, kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan topishmoqlarning dastlabki turlari mavjud (In Children's Riddling, by John McDowell). Quyida shunday tipdagi topishmoqlardan namunalar keltirilgan:

1. What has eight wheels and rolls? – roller skates
2. What has two wheels and pedals? – a bicycle.
3. What has four wheels, no pedals, and a steering wheel?-a car.
4. What has four legs and can run? - a mustang.
5. What has three wheels and pedals? - a tricycle.
6. What has four legs and can't walk? - a chair.
7. What has two legs and it can walk? - a monkey.
- 8.What has long legs and it's hard to walk? - a seagull.
- 9.What has two seats, four wheels, and they can roll? - a car.
- 10.What has lots of windows and they can fly? - airplane.
11. What are those little clocks and it's in your car? - a dragger.

Eng keng tarqalgan topishmoq turlari mavzulashtirilgan guruhlarini ichiga oladi: hayvonlar, texnika, uy anjomlari, texnika va boshqalar. Quyida hayvonlar to'grisida topishmoqlar keltirilgan:

1. It is little and green,

It can hop and swim, and sing,

It lives in the lake.

Answer: frog

2.It is brown and big,

It likes honey.

Answer: bear

3.It is little and grey,

It lives under the house,

It likes cheese very much.

Answer: mouse

Keyingi kelib chiqishi asrlarga borib taqaladigan, ya'ni yozma adabiyot shakllanmasidan oldin paydo bo'lib, adabiyot bo'lishishning eng yaxshi metodiga aylanib ulgurgan hikoya qilish (storytelling)dir.

Hikoyaning bu turi bolalar adabiyotining og'zaki shakli hisoblanib, ota-onalar, bobo-buvi yoki o'qituvchi hattoki media tomonidan ham bolalarga yetkaziladi va hozirgi kunga qadar Amerika bolalar adabiyotida o'z o'rnini yo'qotmagan. Bu tur o'z ichiga bedtime stories ya'ni uyqu oldi aytiladigan hikoyalarni ham o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda hikoya aytib berishning faqatgina qamrab olgan mavzularida o'zgarishlar mavjuda, ya'ni o'tmishda ko'proq qahramonlik, yovuzlik, ezgulik kabi mavzularni yoritgan bo'lsa, hozirda shu mavzular zamonaviy detallar bilan boyitiladi. Masalan, qahramon o'z qiyinchiliklarini turli zamonaviy vositalar kosmik raketa, samalyot yoki shunga o'xshash vositalar yordamida yengib o'tadi, turli qiziqarli sarguzashtlari ham shularga aloqador bo'ladi. Shuningdek bolalar hikoyalardan o'zlari ham zavqlanishlari mumkin va bu biroz katta yoshdagi bolalarga xosdir. Taniqli adabiyotshunos, Luiz Rozenblat aytgani kabi, hikoyalar qahramonlarning xatti-harakatlari orqali o'quvchilarning fikrlash qobilyatini oshiradi, muammolarga yechim topish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek bolalar ijtimoiy hayotda qanday ishtirok etish haqidagi tanqidiy nuqtai-nazarni ham egallashadi. Hozirgi kunda hikoyalarning mualliflari ham hikoyalarga o'zgacha joziba baxsh etishmoqda. ya'ni hikoya kitoblar ularga mos suratlar va bezaklar bilan boyitilmoqda. Bu esa o'quvchining e'tiborini tortish va ularni qiziqishini yanada orttirish yo'li sifatida ko'riladi. "The Engineer&The Vaccine" by Steven Raimondi (2021), "Echo Mountain" by Lauren Wolk (2020) kabi kitoblar bolalar uchun badiiy adabiyotning g'ayrioddiy eshiklarini ochadi.

Zamonaviy bolalar badiiy adabiyotining yana bir janri fantastika (fiction)dir. Fantastik asarlar tasavvur va xayolotga asoslangan bo'lib, ajoyibotlar va g'ayrioddiy elementlarni o'z ichiga oladigan hikoyalardir. Bu janr o'z navbatida yana quyidagi subkategoriyalarga bo'linadi:

-zamonaviy realistic fantastika (contemporary realistic fiction)

-ilmiy fantastika (scientific fiction)

-tarixiy fantastika (historical fiction)

-hayvonot fantastikasi (animal fantasy) va boshqalar.

Fantastika bolalar uchun yetib bo'lmas marralarni zabt etishga, hayotdagi qiyinchiliklarni tasavvuriy va xayoliy vositalar orqali yengib o'tishga undaydigan janrdir. Fantastik janrdagi asarlar bolalarda tasavvur olamini, hayotga, yangiliklarga bo'lgan qiziquvchanlikni oshiradi. Ayrim innovatsion bolalarda qandaydir muhim kashfiyotlarning debochasi ham bo'lishi mumkin.

Lois Lowryning "Son" (2012), "Messenger" (2004), "Gathering Blue" (2012) asarlari, Kate (Katrina Elizabeth) DiCamilloning "Because of Winn-Dixie" (2000), "The Tiger Rising" (2001), "The magician's Elephant" (2009) asarlari Amerika bolalar adabiyotida oxirgi ikki o'n yillikning yorqin namunalaridir.

Biografik asarlar ham XXI asr bolalar adabiyotida o'zining muhim o'rniga ega. Bunday asarlar ko'pincha chuqur ma'noga ega bo'lgan adolat, irqchilik, immigratsiya kabi mavzularni qamrab oladi. Shunday asarlarga misol sifatida "Passport" (2021) – asarini olishimiz mumkin. Bu asar muallif (Sophia Glock)ning o'smirlik yillari, ota-onasining kasbi tufayli turli xil davlatlarda yashaganlarini so'zlab beradi. Shuningdek Adama Bathning "Accused: My Story of Justice", Laurie Haise Andersonning "Shout" asarlari ham biografik asarlarning yorqin misollaridir.

Biografik kitoblar o'qish, ularning chuqur ma'nolaridan bahramand bo'lish bolalarga o'z oldlariga ulkan marralarni qo'yish, hayotga bo'lgan to'g'ri tushunchaga ega bo'lishga, boshqa odamlarning hayot yo'lini o'rganib o'rnak olishga ko'maklashadi. Bir so'z bilan aytganda biografik asarlar bolalar uchun hayot darsidir.

Bolalar adabiyoti Amerikada yosh omili ta'sirida ham sinflanadi. Va ular quyidagilar:

-0-8 yoshli bola(pre-reader)lar uchun mo'ljallangan kitoblar – rasmi kitoblar (picture books). Bunday kitoblar asosan yosh bolalarga qaratilgan bo'lib, boshqa kitoblarda hikoya, syujet matn orqali ifodalangan bo'lsa, bunday kitoblarda ketma-ket kelgan tasvirlar orqali o'quvchiga yetkaziladi. Ular juda oddiytilga ega bo'lib, bunday rasmi kitoblar turkumiga alifbo kitoblari, hisoblash kitoblari va boshqalar.

-5-7 yoshli bola(early reader)lar uchun mo'ljallangan kitoblar – early reader kitoblar (. Bunday kitoblar o'qish mahoratini endigina egallagan o'quvchilarga mustaqil o'quvchi bo'lishlariga yordam beradi.

-7-12 yoshlilar uchun mos bo'lgan chapter books (bobli kitoblar)dir. (Ammo ular chap books bilan chalkashtirilmasligi kerak. Chap books – buklet shaklidagi rasmlar va ommaga ovoz chiqarib o'qish uchun mo'ljallangan oddiy balladalar, diniy risolalarni o'z ichiga olagan). Bobli kitoblar boshlang'ich o'quvchilar uchun rasmlardan ko'ra voqealarni nasr orqali bayon qiladi. O'z nomidan ko'rinib turganidek bunday kitoblarda hikoyalar odatda qisqa boblarda beriladi, lar o'quvchilarga o'qishni to'xtatish va davom ettirish imkoniyatini beradi. Ya'ni yosh o'quvchida diqqat davomiyligi unchalik uzoq bo'lmaganligi sababli u bitta to'liq hikoyani bir o'tirishda tugatish uchun yetarli emas va bunday boblarga bo'lingan kitoblar yosh kitobxonlarimiz uchun ayni muddao.Bobli kitoblar ham o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

7-9 yoshlilar uchun mo'ljallangan qisqa bobli kitoblar (shorter chapter books)

9-12 yoshlilar uchun mo'ljallangan uzun bobli kitoblar (longer chapter books)

-yoshi katta (12-18)lar uchun mo'ljallangan kitoblar (young adult books). Bunday kitoblarning mavzu va qahramonlarning yoshi bilan ham yuqoridagi adabiyot turlaridan farq qiladi. Asosan umumiy bog'liq sifatida tilga olinadigan mavzularga do'stlik, o'zlikni anglash, birinchi sevgi kiradi.

-18-30 yoshlilarni o'z ichiga oladigan subjanr- yangi kattalar uchun fantastika(new adult fiction)dir. Bu atama birinchi marta 2009-yilda qo'llanilgan. Bunday asarlar asosan uyni tark etish, yoshlar o'rtasida ta'lim va kasb tanlashdagi muzokaralar kabi masalarga e'tibot qaratadi. So'nggi bir necha yil ichida bu janr sezilarli sur'atda o'sdi va ommalashdi. Jennifer L.Armentrout, Cora Carmack bu janr rivoji uchun sezilarli hissa qo'shgan.

XXI asrda Amerika bolalar kitoblar qamrovidagi mavzularga bu mamlakatda turli xil teri rangi va turli etnik kelib chiqishishi bo'lgan bolalar yashashi ta'sir qilgan. Bugungi kunda yuqorida eslatilgan turdagi bolalar uchun yaratilgan bag'rikeng imkoniyatlar, irqiy xurofotning pasayish alomatlari, hayotdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabatni yaxshi yoritadigan mavzular bolalar adabiyotining salmoqli qismini tashkil qiladi. Shunday yondashuvning yorqin misoli sifatida 2020-yilda Anderson mukofotiga sazovor bo'lgan amerikalik Jaklin Vudson, yoshligi Amerikada o'tgan yozuvchining avtobiografik "Qora qizning orzulari" kitobini olishimiz mumkin. Bu asar erkin she'rda yozilgan bo'lilib Amerika Qo'shma Shtatlarida mashhurlikka erishdi.

So'nggi yillarda o'smirlar adabiyotida qora tanli qahramonlar, ispan yoki osiyolik qahramonlar, rezervatsiyada o'sgan va tubjoy amerikaliklarning turli qabilalariga mansub bolalar paydo bo'la boshladi. Bir so'z bilan aytgan ijtimoiy muammolar ham yoshlarning e'tiboridan chetda emas. Shuningdek, bolalar adabiyotidagi mualliflarning aksariyatini , oldingidan ko'ra ko'prog'ini, ayollar tashkil etishi bilan feminizm ta'sirini ham ta'kidlashimiz mumkin. Puerto-Rikolik amerikalik ijodkor Elizabet Asevidoning yqinda chop etilgan "Qo'nganimizda qarsak chaling"(2020) asari yuqoridagi jumлага yorqin namuna bo'la oladi.

Kichkina yoshdagi bolalar kitoblarining aksariyatini rasmi kitoblar tashkil qilib, bunday kitoblar asosan nozik tasvirlangan tabiat hodisalari, qushlar, hayvonlar, hasharotlar, tuli xil kasblar, kiyim-

kechaklar, shirinlik va yeguliklar to'g'risidagi hikoya va matnlarni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, kichik yoshdagi bolalar uchun kitoblarning kupchiligida matn asosiy rol bajarmaydi va katta hajmda ham berilmaydi. Aksincha mualliflar asosan bunday kitoblarning rang-barang bo'lishini, bezaklari bolalarning e'tiborini oladigan, qiziqishini oshiradigan bo'lishiga e'tibor qaratadi. O'tmishda kitoblar faqat mualliflar tomonidan yozilgan bo'lsa, endilikda bu tendensiya ancha o'zgardi. Hozirda rasm kitoblar ustida muallif, rassomlar yoki rassom-mualliflar ishlashadi. Chunki bola dunyosi rang-baranglik, go'zallik, nafislik shaydosi. Matn esa birinchi muhim o'rin tutmasligi sababli, oddiy gaplardan va tushunilishi oson bo'lgan so'zlardan tuziladi. Bu bolalarda zerikishni oldini olishning eng yaxshi yo'lidir. Shuningdek 21-asr kitob sanoatining o'ziga xos xususiyati shundaki, mijozlar ya'ni bolalarning talab va istaklari tinglanadi, bu asosan so'rovnomalar va yuzma-yuz bo'ladigan suhbatlar orqali psixolog va maxsus ekspertlar ko'magida olib boriladi. Ularning qiziqishi, nimani xohlayotganliklari, qanday turdagi kitoblarni o'qimoqchiliklari shu tarzda aniqlanadi. Albatta, shu asnodan ota-onalarning ham tanlovlari hisobga olinadi. Ular bolari qanday kitobni o'qishini xohlashlari, qanday turdagi kitobdan zavqlanishi so'raladi.

Amerika zamonaviy bolalar adabiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki tarjima asarlar kitoblarning juda ham ulushini tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlarga asosan tarjima asarlar barcha nashr qilingan asarlarning atigi 3%ini tashkil qiladi. Bu xususiyat va o'ziga xoslik Amerika bolalar adabiyoti uchun xosdir. Bolalar adabiyotida tarjimaning "hojati yo'q", chunki amerikalik bolalar ingliz tilini bilishadi va eng mashhur zamonaviy kitoblar ingliz tilida nashr qilinadi va bu tarjimaga ehtiyoj qoldirmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, 21-asr Amerika bolalar adabiyoti nafaqat o'tmishda amalda bo'lgan ko'plab yondashuvlardan voz kechgan va ko'plab yangiliklarni o'zida mujassamlashtirgan. Bolalarning sevimli hordiq va ma'naviy ozuqa olish vositasi bo'lishdan tashqari mijozlarini tinglaydigan va ularning didiga, qiziqish va istaklariga binoan ishlaydigan ulkan sanoatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Asonova E and Bukhina O (2020) Everything is new: the publishers, the writers, and most importantly, the readers. *Bookbird* 58(2): 1–12.
2. Brain Smith, Jay Mechling, Thomas Johnson – *Children's Folklore*. Utah, Logan 2002
3. Bolalar adabiyoti majmua; Namangan 1: 104–124.
4. Ciecierski L and Bintz W (2015) Using authentic literature to develop challenging and integrated curriculum. *Middle School Journal* 46(5): 17–25.
5. "Hey, didle, didle," by Mother Goose; Poetry Foundation
6. Hassel T and Clasen H 2017 *Gender(ed) identities: critical rereadings of gender in children's and young adult literature*. New York: Routledge.
7. John McDowell, In *Children's Riddling*
8. *Introduction to world children's literature*. Norton.
9. Nikki Gamble, Sally Yates - *Children Literature: Teaching the language and reading fiction* (2002); London
10. Bolalar adabiyoti fanining nazariy asoslari – Majmua (2022).
11. Klicheva, M. 2022. ПРИНЦИПЫ ДУХОВНОГО АНАЛИЗА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ РЕЗУЛЬТАТЕ ОДИНОЧЕСТВА В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu.uz](http://buxdu.uz)). 8, 8 (фев. 2022).

Kilicheva, M. R. (2021). POETICS OF WORKS ON LONELINESS IN AMERICAN AND UZBEK LITERATURE. Scientific reports of Bukhara State University, 5(56), 56-64.

Kilicheva, M. R. (2021). Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 997-1001.